



SHEKSPIRNING "OTELLO" TRAGEDIYASIDA DOGMATIK TAFAKKUR,
PERSEPSIYA, DIALEKTIKA VA GNOSEOLOGIK MUAMMOLARNING FALSAFIY
TAHLILI

Absattorova Charos Abdihakimovna

*Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Kutubxona axborot faoliyati" 2-kurs 124-
guruh talabasi*

Bo'riyev Fazliddin Faxriddinovich

Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti Falsafa kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Uilyam Shekspirning "Otello" tragediyasi falsafaning asosiy kategoriyalari – dogmatizm, persepsiya, gnoseologiya, ontologiya va dialektik taraqqiyot nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilinadi. Asar qahramonlarining ruhiy kechinmalari inson tafakkurining cheklanganligi, idrokiy xatolar, dalilsiz ishonchning xavfi va haqiqatni bilish jarayonining murakkabligini yoritadi. Otello obrazining fojeasi orqali Shekspir tanqidiy tafakkur yetishmasligining oqibatlarini namoyon qiladi; Brabansio misolida subyektiv bilimning chegaralari ko'rsatiladi; Yago timsolida esa inson borlig'idagi yovuzlikning ontologik ildizlari ochib beriladi. Dezdemonna esa ezgulikning abadiyligi va kechirimning oliyligi ramzi sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: dogmatizm, persepsiya, bilish nazariyasi, idrok, inkorning inkori, Shekspir, Otello, gnoseologiya, ontologiya.

KIRISH

Uilyam Shekspirning "Otello" tragediyasi inson ruhiyatidagi ishonch, rashk va e'tiqodning chegarasini chuqur falsafiy tahlil qiladi. Asarda asosiy qahramon Otello dogmatik fikrlash qurboni sifatida gavdalanadi. Uning fojeasi-inson tafakkurining cheklanganligi va tanqidiy fikrlash yetishmasligining ramzidir. Dogmatizm falsafada insonning bir fikr yoki g'oyani so'zsiz haqiqat deb bilishi, uni shubha ostiga olmasligi sifatida talqin qilinadi. Otello aynan shunday xatoga yo'l qo'yadi: u Yagoning so'zlarini dalilsiz qabul qiladi, Dezdemonaning sadoqatiga esa shubha bilan qaraydi. U o'z ishonchini "haqiqat" deb biladi va uni o'zgartirishni istamaydi. Bu - dogmatizmning klassik ko'rinishi.

"Otello" asarida dogmatik tafakkurning halokatli oqibatlarini dramatik tarzda ko'rsatadi. Otello haqiqatni his-tuyg'ular orqali o'lchaydi, aqlni emas, rashkni mezon qiladi. Natijada u sevgisini, baxtini va hayotini yo'qotadi. Falsafiy jihatdan bu hodisa inson tafakkurining xatolikka moyilligini, haqiqatga yetishish uchun esa shubha va tahlil zarurligini eslatadi.

Asarning eng muhim saboqlaridan biri shundaki, dogmatizm insonni haqiqatdan emas, yolg'ondan hosil bo'lgan ishonchga yetaklaydi. Haqiqatga eltuvchi yo'l esa har doim tanqidiy fikrlash, sabr va dalil orqali topiladi. Menimcha, Shekspir "Otello" asarida Otello orqali insonlarga buyuk falsafiy haqiqatni anglatadi: inson o'z ishonchiga emas, aql va adolatga suyanmog'i kerak. Inson haqiqatni tekshirmasa, o'z ishonchiga tanqidiy qaray



olmasa – u adashadi va bu adashuv uni halokatga olib keladi. Otelloning xatolari – inson tafakkurida tanqidiy yondashuv bo'lmasa, qanday halokat yuz berishini ramziy tarzda aks ettiradi.

Asarda muhim g'oyaviy qatlamlardan biri – bu persepsiya, ya'ni insonning voqelikni qanday qabul qilishi va talqin etishidir. Otello orqali inson idrokining zaifligini, uning tashqi manipulyatsiyalarga bo'ysunuvchanligini va haqiqatni hissiyotlar orqali buzib anglashini chuqur ko'rsatadi. Shu jihatdan asarda persepsiya falsafasining asosiy qonuniyati – "inson idroki hech qachon mutloq haqiqatni to'liq aks ettira olmaydi" degan g'oya o'z ifodasini topadi.

Tragediyaning markazida Otello va Dezdemonna o'rtasidagi sevgi turadi. Ammo bu sevgi Yagoning hiylasi sabab inqirozga yuz tutadi. Yago Otelloning idrokini, ya'ni uning persepsiyasini asta-sekin boshqaradi: u so'zlar, ishoralar va yolg'on dalillar orqali Otelloning ongida Dezdemonaning sodiqligiga nisbatan shubha uyg'otadi: Otello esa bu so'zlarga ishonadi, chunki u voqelikni aqli bilan emas, hissiyotlari orqali idrok etadi. Shu paytdan boshlab haqiqatni anglash jarayoni buziladi – Otello haqiqatni ko'rmaydi, balki o'z shubhasini haqiqat deb qabul qiladi.

Yago Dezdemonaning ro'molchasini "dalil" sifatida ko'rsatadi. Otello bu "ko'rinish"ni haqiqat deb bilib, "Ko'zim bilan ko'rdim, endi ishonmasligim mumkin emas," deydi. Bu fikr asarning falsafiy mohiyatini ochadi: inson ko'rgan narsa ham har doim haqiqat emas, chunki idrok hissiy va ijtimoiy omillar ta'sirida buzilishi mumkin. Otelloning keyingi qarorlari – xususan, Dezdemonani o'ldirishi – uning buzilgan persepsiyasi oqibatidir.

Asarning so'ngida Otello o'z xatosini anglaydi: "Men ko'rdim deb o'yladim, lekin aslida yuragim ko'r bo'lgan ekan." Bu satr nafaqat qahramonning pushaymonini, balki idrokning falsafiy chegarasini ifodalaydi. Otello kech anglaydiki, u haqiqatni tashqi dalillar orqali emas, balki ichki qo'rquv va gumonlar orqali ko'rgan. Shu tarzda inson idrokining nisbiyligini va hissiy ta'sirlar orqali haqiqatni noto'g'ri qabul qilish mumkinligini ko'rsatadi.

"Otello" tragediyasi inson ruhiyati va idrokining falsafiy tahlilidir. Asarda inson persepsiyasining zaif tomonlarini ochib beradi: inson o'z his-tuyg'ulariga haddan tashqari berilganda, haqiqatni emas, balki o'z tasavvurini haqiqat deb biladi. Bu esa fojiga olib keladi. Shunday qilib, asar orqali yozuvchi persepsiya falsafasini asosiy qonuniyatini ifodalaydi: "Inson idroki voqelikni to'liq anglay olmaydi: u har doim hissiyot, gumon va ishonch prizmasi orqali haqiqatni talqin etadi." Otello shu bois nafaqat sevgi va rashk tragediyasi, balki inson ongining falsafiy zaifligi haqida chuqur mushohada bo'lib qoladi.

Falsafada mavjud bo'lgan dialektik qonunlardan yana biri – bu inkorning inkor qonuni bo'lib, u har qanday rivojlanish jarayoni qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar va ularning o'zaro kurashi natijasida yuz berishini ifodalaydi. Mazkur qonuniyatga ko'ra, taraqqiyot – eski holatning inkor qilinishi, so'ngra o'sha inkorning ham inkor etilishi orqali yangi, yuqori bosqichga o'tish jarayonidir.

"Otello" tragediyasi ana shu qonuniyatning badiiy ifodasi sifatida qaralishi mumkin. Asarda bosh qahramon Otelloning ruhiy kechinmalari – sevgi, ishonch, rashk, gumon va pushaymonlik orqali inson ongining dialektik rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Shu



jihatdan "Otello" tragediyasi falsafaning inkorning inkor qonuni badiiy tarzda ifodalagan eng yorqin asarlardan biridir.

Asar boshida Otello va Dezdemonaning munosabatlari sof sevgi va ishonch asosida qurilgan. Otello Dezdemonani hayotining mazmuni, qalbining yorug'ligi deb biladi. Bu – dastlabki bosqich, ya'ni ijobiy holatdir. Ammo bu holatda yashirin ziddiyat mavjud: Otelloning qo'rquvi, o'z kelib chiqishidan uyalishi va o'zini Dezdemonaga munosib deb bilmaslighi. Aynan shu ichki ziddiyat keyinchalik rivojlanishning keyingi bosqichiga sabab bo'ladi.

Yago fitnasi orqali Otelloning bu ishonchi inkor etiladi. Yago so'zlar va yolg'on dalillar yordamida Otelloning idrokini o'zgartiradi, uni rashk va gumon yo'liga boshlaydi. Shu tariqa sevgi o'rnini shubha egallaydi, ishonch o'rniga beqarorlik keladi. Bu – birinchi inkor bosqichidir. Dialektik nuqtai nazardan, bu holat eski ijobiy holatning ichki ziddiyatlar ta'sirida buzilishi, ya'ni inkor qilinishidir.

Asarning yakunida esa Otello Yagoning fitnasini bilib oladi va o'z xatosini anglaydi. U Dezdemonaning begunohligini tushunib, o'zini kechirolmaydi. Shu tarzda u o'z rashkini, gumonini – ya'ni birinchi inkorni – o'zi inkor etadi. Bu – ikkinchi inkor, ya'ni inkorning inkor bosqichidir. Endi Otello haqiqatni kech bo'lsa ham anglaydi, o'z xatolarining mohiyatiga yetadi. U o'zini jazolash orqali ruhiy tozalanishga intiladi. Dialektik ma'noda bu – yangi sifat bosqichi, ya'ni insonning o'zini anglash holatidir.

Shunday qilib, Otello ruhiy yo'li quyidagicha ketma-ketlikda ifodalanadi:

1. Sevgi va ishonch – boshlang'ich ijobiy holat.
2. Rashk va gumon – birinchi inkor, ya'ni ijobiyning inkori.
3. Haqiqatni anglash va pushaymonlik – ikkinchi inkor, ya'ni yangi bosqich, ruhiy yetilish holati.

Shekspir shu tarzda inson ruhiyatidagi o'zgarishlar orqali falsafiy qonuniyatni badiiy ifodalashga erishgan. "Otello" dagi ziddiyatlar oddiy hissiy to'qnashuv emas, balki inson idroki va ruhining dialektik rivojlanish jarayoni sifatida tasvirlanadi.

"Otello" tragediyasi inson ruhiyatidagi murakkab o'zgarishlar orqali inkorning inkor qonunini badiiy jihatdan namoyon etadi. Otelloning hayoti va kechinmalari ziddiyatli bosqichlardan o'tadi: muhabbat – rashk orqali inkor etiladi, rashk esa haqiqatni anglash orqali yana inkor qilinadi. Shu tariqa Otello obrazida insonning o'zini anglash jarayoni, ruhiy va axloqiy taraqqiyot dialektik yo'l bilan amalga oshadi. Bu esa falsafaning inkorning inkor qonuniga to'la mos keladi.

Shunday qilib, "Otello" asari nafaqat adabiy, balki falsafiy jihatdan ham inson ruhiyati evolyutsiyasini ochib beruvchi chuqur asardir.

Brabansio – Venetsiyalik senator, Dezdemonani otasi. U obro'li, faxrli ammo urfdan chiqmagan qadriyatlar va ijtimoiy qarashlar bilan yashaydi. Gnoseologiya – inson bilish jarayoni, haqiqatni qanday anglaydi, bilishning manbai nima, bilimning ishonchliligi qanday belgilanadi degan savollarni o'rganadigan falsafiy yo'nalish. Shekspir Brabansio orqali bilishning xatoligi, subyektiv ishonch, stereotiplar asosida haqiqatni noto'g'ri talqin qilish kabi gnoseologiya muammolarini ochib beradi. Brabansio bilishning manbai sifatida "tajriba" ni mutloq haqiqat deb oladi. Brabansio o'zi ota sifatida Dezdemonani "yaxshi bilaman" deydi. Uning gnoseologik xatosi: bilish manbaini subyektiv tajribaga



tenglashtiradi. Ko'p yillik odatiga asoslanib, qizi bunday qaror qila olmaydi, deb ishonadi. Bu empirik bilimni mutlaq haqiqat deb qabul qilish xatosi. Bilimni isbot emas, ehtimollar orqali quradi. Brabansio Otelloga qarshi jodugarlik ayblovi qo'yadi, lekin bunga hech qanday empirik dalil keltira olmaydi. Bu: bilishning mantiqiy asosga ega emasligi, haqiqatni noaniqlik va qo'rquv orqali izohlash, bilish jarayonida irratsional tafakkur ustunligi ekanini ko'rsatadi.

Bu gnoseologiyada irratsional bilish modeli sifatida qaraladi. Gnoseologik inqiroz Dezdemonaning o'zi haqiqatni aytganida, senat majlisi sahnasida Dezdemonaning o'zi Otelloni ixtiyoriy tanlagani, hech qanday majburlash bo'lmagani haqida aytganda Brabansio ichki gnoseologik inqirozni boshidan kechiradi. Avvaliga bilimlari buziladi, tajribaga asoslangan haqiqat puchga chiqadi. Uning bilish modeli voqelik bilan mos kelmaydi. Bu gnoseologiyada subyektiv bilishning obektiv haqiqat bilan to'qnashuvi deyiladi. Shekspir uni bilishning zaifligi va inson ongining o'z ishonchiga qamalib qolishi ramzi sifatida ko'rsatadi.

Dezdemon o'limida ezgulikning mavjudligi yovuzlik orqali sinovdan o'tishi tasvirlangan. Bu – ontologik jihatdan "borliqdagi qarama-qarshiliklar birligi" g'oyasini ilgari suradi. Dezdemon poklik, go'zallik, muhabbat va kechirim timsoli. U o'zini himoya qilmaydi, hatto o'lim oldidan ham Otelloni kechiradi. Bu asarda ezgulikning eng oily qadriyati kechirim ekanini ko'rsatish mumkin. Dezdemon o'ladi, lekin uning ruhiy pokligi abadiy qadriyat sifatida saqlanadi. Haqiqat mavjud, ammo uni anglash insonning bilish qobiliyatiga bog'liq.

Dezdemon begunoh, pok, haqiqatni yashirmaydi. Ammo Otello uni tushunmaydi, demak haqiqat inson qarshisida tursa ham, uni ko'ra bilish har doim ham oson emas. Yago yovuzlikni na modiy manfaat, na zarurat uchun qiladi.

U o'zining mavjudligini boshqalarni yo'q qilish orqali his qiladi. Yago inson borlig'idagi qorong'u tomonni ifodalaydi. Axloqiy qarorlar shubha va g'azabga emas, haqiqat va sabrga tayanmog'i kerak.

Otello o'z xotinini o'ldirgach, haqiqatni bilib, vijdon azobiga tushadi va o'z joniga qasd qiladi. Bu – vijdon jazosi bu asarda inson qanday bo'lmasin, axloqiy javobgarlikdan qocholmasligini ko'rsatadi.

Dezdemon Otelloga : "Pokligimga ishonarsiz ? " deb savol beradi bu orqali uning qiyinchiliklar ichida ham sevgisini saqlab qolishiga ishonadi.

Biroq, Otello esa o'z ichidagi shubhalar va g'azab bilan yuzlashmoqda. U o'zini qiyinchiliklar ichida his qiladi va "Hali ruhing o'lim uchun tayyor bo'lmasdan gunoh bilan o'ldirmayman" – deb aytib, o'z ichki kurashi va sevgi haqidagi qarashlari o'rtasidagi ziddiyatini ko'rsatadi.

O'z joniga qasd qilish – fojining yakuniy ramzi. Otello Dezdemonaga qilgan zulmini o'ziga qaytaradi bu falsafiy tomondan shuni anglatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shakespeare, W. (2005). Othello. Cambridge University Press.
2. Jo'rayev, M. (2012). Falsafa: Bilish nazariyasi asoslari. Toshkent: Universitet.



3. Yo'ldoshev, Q. (2001). Bilish nazariyasi va haqiqat muammosi. Toshkent: Akademnashr.
4. Normatov, A. (2016). Inson va borliq falsafasi. Toshkent: Fan va texnologiya
5. Abdullayev, R. (2009). Dialektikaning nazariy asoslari. Toshkent: Fan.